

O‘ZBEK TILIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING  
MA‘NO TARAQQIYOTI

*Xodjayeva Dilafruz Izzatullayevna,  
Phd dotsent, Buxoro Davlat Universiteti.*

*Azamova Gulsanam Afzalovna  
2- bosqich magistranti,  
Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro.  
Email: g.a.azamova@buxdu.uz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola, o‘zbek tiliga o‘zlashgan inglizcha o‘zlashma so‘zlarning ma‘no taraqqiyotiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘zbek tiliga kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarning kelib chiqish bosqichlari, o‘zbek tiliga o‘zlashgan inglizcha o‘zlashma so‘zlarning semantik tuzilishidagi o‘zgarishlari va albatta o‘zlashma so‘zlar to‘g‘risida bir necha professor olimlarning fikr va mulohazalarini o‘rganish maqsad qilib olindi. Hozrgi kunda o‘zbek tili lug‘ating boyib borishiga ayniqsa ingliz tilidan kirib kelyatgan so‘zlar muhim hissa qo‘shib kelyapdi. Bu to‘g‘rida ilmiy izlanish esa bugungi kundagi dolzarb mavzulardan xisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, sinxronik, traditsion tub, leksema, monosemantik, polisemantik, differentsiallash,

**Annotation:** This article is devoted to the meaning development of English loanwords that have been adopted into the Uzbek language. The aim was to study the changes in the semantic structure of common English loanwords and the opinions of several professors and scientists about loanwords. Today, words imported from English are making an important contribution to the enrichment of the Uzbek language vocabulary. Scientific research in this regard is one of the current topics.

**Key words:** own layer, assimilated layer, synchronic, traditional root, lexeme, monosemantic, polysemantic, differentiation,

**Аннотация:** Данная статья посвящена смысловому развитию английских заимствований, заимствованных в узбекском языке. Цель состояла в том, чтобы изучить изменения в семантической структуре общеупотребительных английских заимствований и мнения нескольких профессоров и ученых о заимствованиях. Сегодня слова, импортированные из английского языка, вносят важный вклад в обогащение словарного запаса узбекского языка. Научные исследования в этой связи являются одной из актуальных тем.

**Ключевые слова:** собственный слой, ассимилированный слой, синхронный, традиционный корень, лексема, моносемантика, полисемантика, дифференциация,

Ma‘lumki, har bir til o‘z lug‘at boyligiga ega bo‘lar ekan, o‘zining ichki qonuniyatlari asosida tadrijiy ravishda rivojlanib boradi. Shuningdek, jamiyatda bo‘ladigan o‘zgarishlarga mos ravishda, o‘z tiliga ega bo‘lgan xalq til birliklarining o‘zga xalqlar bilan siyosiy, ma‘naviy, madaniy, iqtisodiy aloqalari natijasida ham boshqasiga o‘tib borishi kuzatiladi. Bu holat manbalarda o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam guruhi sifatida tasniflanadi.

O‘zbek tili rivojlangan tillar qatoriga kirar ekan, uning leksikasi ichki va tashqi boyish manbalari hisobiga kundand-kunga boyib bormoqda. Xususan, hozirgi paytda tilimizning tashqi manba

asosida boyishi faollashganini ta'kidlash joiz. O'zbek tiliga o'zlashgan va o'zlashish jarayoni sezilarli davom etayotgan o'zlashmalar xususida fikr yuritganda, ular sirasidan inglizcha o'zlashma so'zlarning o'rni ayni paytda ilmiy jihatdan o'rganish uchun asosli deyish mumkin. Zeroki, hozirgi paytda butun dunyo muloqot tili sifatida tan olinayotgan ingliz tilining boshqa tillarga ta'sir darajasi sezilarlidir. "XX asr lotini" nomi bilan yuritilayotgan bu til nafaqat o'zbek tili, balki dunyodagi ko'plab tillarga so'z berib, ularning leksikasini boyitayotgani ko'pchilikka ma'lum. Professor E.Begmatov o'zlashma so'zlar masalasiga yondashar ekan, quyidagicha fikrni bildiradi: O'zbekcha so'zlar uchun asos bo'luvchi arabcha, forsha-tojikcha kabi so'zlar material va genetik manbaiga ko'ra chet til elementi bo'lsa ham, ularni hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtai nazaridan, ya'ni davriy (sinxronik) holatga ko'ra, tashqi resurs deyish bir tomondan to'g'ri, ikkinchi tomondan esa, shartlidir. Bu so'zlar endilikda o'zbek tiliga o'zlashtirilgan, ko'p davrdan beri bu tilda iste'molda bo'lgan, o'zbek tilining qonuniy boyligiga aylangan leksikadir. Shuning uchun bu so'zlarning ko'pchiligi o'zbek tilida gaplashuvchi hozirgi davr kishilari uchun o'zlashma so'z tarzida tuyulmaydi. Mana shu xususiyatiga ko'ra, yangi o'zbekcha so'zlar uchun baza bo'luvchi arabcha, forsha-tojikcha so'zlar funksiyasiga ko'ra, traditsion tub turkiy so'zlarga yaqin turadi. Demak, o'zbekcha so'zlar yasalishiga [xizmat qiluvchi arabcha](#), fors-tojikcha so'zlarning aksariyati keltirilgan ma'noda ichki resurs xarakteridadir". Professor Sh.Rahmatullayev esa "Fors, arab tillaridan leksema o'zlashtirish tarixan ko'p bo'lgan, hozir esa siyraklashgan. Hozirgi o'zbek tilida rus tilidan o'zlashtirishlar o'rnini bevosita g'arb tillarining o'zidan o'zlashtirish oldi", – deya ta'kidlaydi.

Tilimizdagi o'zlashma so'zlar semantikasi o'rganilsa, leksik ma'no taraqqiyotining natijasi sifatida ikki xil holat – leksik ma'no hajmining kengayishi yoki torayishi kuzatiladi. Ma'no kengayishi ma'lum bir so'zlar uchun tarixiy taraqqiyot jarayoni bo'lib, leksik ma'noning avvalgisiga nisbatan kengroq voqelikni bildirishiga nisbatan ishlatiladi. Inglizcha o'zlashma hisoblangan dizayn leksemasi eski nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan o'rin olmagan. Tilimizga o'zlashish tarixi uzoq bo'lmagan bu leksema, avvalo, chizmachilik, tasviriy san'at, arxitektura soha atamasi sifatidagina ishlatila boshlagan edi. Bu leksemaning qomusdagi maqolasi quyidagicha. Dizayn [inglizcha design – loyiha, chizma, rasm] – narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi termin. Dizayn 20-asr boshlarida yuzaga kelib, 30-yillarda maxsus faoliyat turi sifatida G'arbiy Yevropa va AQShda shakllandi. 80-yillar 2-yarmidan dizaynning faoliyat doirasi kengaydi. Unga berilgan izohdan ma'lum bo'ladiki, bu leksemaning hozirda keng planda ishlatilishi aniq ma'noning mavhum ma'noga o'tishi bilan farqlanadi. Ya'ni chizmachilik, tasviriy san'at, arxitektura soha atamasi tushunchasidan tashqari badiiy faoliyat turi – estetik xususiyatlarga ega bo'lgan narsalar, sanoat buyumlarini loyihalash, joylashtirish, jihozlash; badiiy jihatdan loyihalash, tashkil qilish kabi umumiy ma'nolarda ishlatilmoqda. Shunga asoslanib, bu leksemani so'z ma'nosining kengayishi hodisasiga uchragan til birligi sifatida aytib o'tish mumkin. Bunker leksemasi 1981-yil nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da kombayn, paxta terish mashinasi va shu kabilarning yig'ilgan narsa to'planadigan qismi ma'nosida berilgan. Paxta terish mashinasining bunkerlari. Yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan esa bu so'zning ma'no jihatdan kengayganini kuzatish mumkin. Bunker- inglizcha bunker – ko'mir solinadigan quti; Kombayn- paxta terish mashinasi va shu kabilarning yig'ilgan narsa kelib tushadigan, to'planadigan qismi. So'rib olingan paxta mashinadagi bochkasimon bunkerga kelib tushyapti. Bu yil Ergashev o'z bunkeridan 100 tonna "oq oltin" terib to'kdi; Qum, shag'al, sement, don, ko'mir va shu kabi narsalarni qisqa muddat saqlash yoki tashishga mo'ljallangan idish; Mudofaa uchun mo'ljallangan yer osti inshooti. Xulosa o'rnida aytish joyizki, o'zbek tili leksikasidan o'rin olgan inglizcha o'zlashma so'zlar

# INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

semantikasidagi o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lib, ular polisemantik xususiyatga ega bo'lishdan tashqari, so'z ma'nosining kengayishi, o'zbekcha so'z yasalishida faol qatnashishi kabi til hodisalarida yetakchi mavqe egallaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. National encyclopedia of Uzbekistan. -T., National Encyclopedia of Uzbekistan. 12 roofs. 2000-2006.
2. Mahmudov N. Uzbek colloquial words: norms and nationality // Uzbek language and literature.2010. No. 6. Page 8.
3. An explanatory dictionary of the Uzbek language. 2 volumes - M., Russian language.
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Neologisms>.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilshunosligida-o-zlashma-so-zlarning-rol-i-va-ahamiyati>
6. KODIROVA, H. (2021). SPEECH ACT ANALYSIS OF TELEGRAM MESSAGES ON CORONAVIRUS: SOCIAL MEDIA AND FAKE NEWS IN UZBEKISTAN. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/download/3861/3703/7475>
7. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). Categorization in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 28, 351–356. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/653>
8. Okil Safarovich Aliev, & Zubaydullo Izomovich Rasulov. (2021). CONCEPTUAL PROBLEMS OF SYNCHRONIC TRANSLATION. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 123–125. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1165>.
9. Rasulov, Z. (2022). INFORMATION FORMING TOOLS (FACTORS) IN THE STRUCTURE OF DISCOURSE. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 15(15). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/6981ю](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6981ю)
10. 10. . Rasulov, Z. I. The problem of language economy from the perspective of language evolution. [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162\\_1\\_335A013FB811809E768BB3EC8D34729184AA276D.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162_1_335A013FB811809E768BB3EC8D34729184AA276D.pdf).
11. 11. Umidullayevna, Saidova Mukhayyo. "SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH POETIC TERMS IN LITERARY DICTIONARIES." RESEARCH AND EDUCATION 1.1 (2022): 38-46.<https://researchedu.org/index.php/re/article/view/682>
12. 12. Саидова, Мухайё. "Inglizcha poetik terminlarning o'zbek tilida berilishida shakl va mazmun munosabati." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 13.13 (2022).[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/6714](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6714)
13. 13. Saidova, M. U. The problem of studying literary terms on figurative language.[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307)